


ТАФАККУР ВА ТАЛҚИН

*(Магистратура талабалари ва ёш олимларнинг
илмий мақолалар тўплами)*

**“Халқ билан мулоқот ва инсон
манфаатлари” йилига бағишланади**



Бухоро - 2017

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**“ХАЛҚ БИЛАН МУЛОҚОТ ВА ИНСОН
МАНФААТЛАРИ” ЙИЛИГА БАҒИШЛАНАДИ**

ТАФАККУР ВА ТАЛҚИН

**(Магистратура талабалари ва ёш олимларнинг
илмий мақолалар тўплами)**

“Дурдона” нашриёти

Бухоро, 2017

4. *Vaqtinchalik differensial narx siyosatini yurgizish:*
 - Mavsum bo'lmagan davrda chegirmali narxlar va pik mavsumda yuqori narxlarni taklif etish;
5. *Mavsum bo'lmagan davrda ichki turizmni rivojlantirish:*
 - Ichki turizmni rivojlantirish, chunki, u yil davomida barqarorlikni yanada ta'minlab turadi;
6. *Mavsumiy o'zgarishlarni to'g'ri va aniq baholash:*
 - "Nima hisoblanishi kerak...?";
 - "Nega...?" degan savollarga javob topish[4].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, destinatsiyada mavjud mahsulotlar taklifini rivojlantirish bilan birga, yangi turlarini yaratish, ularni diversifikatsiya qilib turish turistik mavsumni uzaytirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Natijada mavsumiy cheklanishlar ta'sirida vujudga keladigan muammolar qisqarishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Allcock, J.B. (1989), Seasonality. In: Witt, S.F. and Moutinho, L. (eds). *Tourism Marketing and Management Handbook*, (pp. 387-392). London, Prentice Hall.
2. Butler, R. W., 2001. Seasonality in Tourism: Issues and Implications. In: *Seasonality and Tourism*. Lundtorp, S., Baum, T. (Eds.). Oxford, Elsevier: 5-21.
3. Bar-On, R.R. (1999). The Measurement of Seasonality and its Economic Impacts. *Tourism Economics*, 5(4):437-458.
4. R. W. Butler "Seasonality in tourism: issues and problems", in Seaton et al., *Tourism - The State of the Art*, (Chichester: Wiley) 1994, pp. 332-339.

EKSTREMAL VAZIYATLARDA SHAXS PSIXIKASIDA YUZAGA KELADIGAN HOLATLAR TASNIFI

M.A.Mansurova, BuxDU magistranti

Respublikamizda o'ziga xos izchillik bilan amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub markazida shaxs va uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar yotadiki, bu jarayonda psixologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero har bir shaxs tezkor vaziyat muhit bilan bog'liq o'ziga xos psixologik imkoniyatlariga yetarlicha baho bermay turib shaxsning taraqqiyotiga hozirgi zamon talablariga mos natija ko'rsatish juda

mushkuldir. Tabiiyki, bu holat psixologlar, favqulotda vaziyat, yong'in xavfsizligi hodimlari zimmasiga yanada ko'proq mas'uliyat yuklatiladi. Shuning uchun ham ekstremal vaziyatlarda shaxslarda psixologik ta'sir ko'rsatish va muhofaza qilish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xo'sh, "Ekstremal holat" nima?

Ekstremal holat bu- favqulotda vaziyatlarda faktorlar va mexanizmlar ta'siri ostida inson ongining va hatti-harakatining o'zgarishi hamda ularning bosim ostidagi ta'siri tushuniladi. U fiziologik ta'sirlanish moslashishining (bunday vaziyat jismoniy yoki kimyoviy xarakterning ekstremal omillarining ta'sirida avvalo paydo bo'ladi) yoki psixologik va axloqiy ta'sirlanishni buzilishi bilan tavsiflanadi. Ekstremal vaziyatlarda shaxs organizmining ta'sirlanishi ikki tipda bo'lishi mumkin: ta'sirlanish shaklining bir xilligi va tashvish ta'sirlanishi.

Ta'sirlanish shaklining bir xilligi-ekstremal omillarni yo'q qilish yoki yengib o'tishga va qo'yilgan axloqiy masalalarini yechishga yo'naltirilgan organizmning o'ziga xos ta'sirlanishi hisoblanadi.

Tashvish ta'sirlanishi- ekstremal omilning o'ziga xos aloqasi bilan tavsiflanadi. U avvalo organizmning ishlashini saqlab qolishda va amalga oshayotgan faoliyatning tuzilishini saqlab qolishga yo'naltirilgan. Tashvish ta'sirchanligi qoida bo'yicha kuchli ekstremal vaziyatlarda paydo bo'ladi.

Demak, Ekstremal holat deb birdaniga vujudga kelgan holatni inson sog'ligiga tajjovuz qiluvchi subyektiv holati hisoblanadi.

Ekstremal holatning asosiy belgilari quyidagilar:

1. Odatiy hayot tarzi buziladi, inson yangi shart-sharoitga moslashishi kerak bo'ladi.

2. Bunday holatga tushgan odam maxsus holatda bo'ladi, u psixolog yordamiga va qo'llab-quvvatlashishiga muhtoj bo'ladi.

3. Odamda sodir bo'lgan aks ta'sirini odatiy holatga, odatiy aks tarzida qabul qilish kerak.

4. Ekstremal holatga tushgan kishini maxsus psixologik holatida deb atash mumkin. Bu holatni tibbiyot va psixologiyada stressning yuqori aks ta'siri deb atasa bo'ladi.

5. Kishi ongsizlik holatiga tushishi mumkin xavotir, jahl, qo'rquv yuqori harakatlanganlik kuzatiladi. Ammo uzoq vaqt davom etmaydi.

Bunday hodisani boshdan kechirgan odam mutaxassis ya'ni psixolog yoki vrach yordamiga muhtoj bo'ladi.

Ekstremal holatga tushgan kishi turli xil psixik ta'sirlarga duch keladi. Bunday ta'sirlarga quyidagilarni misol tariqasida aytib o'tish mumkin:

Affekt (jazava) – ruhiy hayajonli holat bo'lib, ehtiroslar bo'ysunmaydigan xarakterning kuchli va qisqa hayajonli holati tushuniladi. Odatda irodasi sust + rivojlangan shaxslarda bunday holat kuzatiladi. Insonning irodali sifatleri qancha ko'p rivojlangan bo'lsa, u shuncha kam jazavaga beriladi, yoki umuman unga yo'l qo'ymaydi.

Qo'rquv-affektning tashqi faolligidan biri bo'lib hisoblanadi. Qo'rquv insonning juda xavfli vaziyatda to'satdan paydo bo'lishini yengib o'tishiga qobiliyatsizligida paydo bo'ladi. Qo'rquv insonni egallab olishi, fikri va irodasini bostirishi, harakatda va kurashda qobiliyatini falaj qilishi mumkin. Qo'rquv va vahimani yengish uchun inson o'z irodasiga tayanishi mumkin. Z.Freyd fikriga ko'ra "Insoniyat mavjudligi turli vaziyatlarda vujudga kelgan qo'rquv va xavotirlar bilan kurashishi orqali xarakterlanadi".

Talvasa- bu darhol to'xtatishni talab qiladigan holat. Nima uchun deganda bu holatda kuchli jismoniy va psixologik kuch sarf qilinadi. Bunday holatda jabrlanuvchiga tinch holat yaratib berish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha psixik holatlar shaxs ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatda shaxs psixikasida "Psixik taranglik" yuzaga keladi. Psixik taranglik odatda charchash, g'azablanish, hayajonli qo'zg'atishlik, negativli boshdan kechirishlarda bilinadi. Bu ta'sirlardan shaxsni forig' qilish uchun albatta psixolog ko'magi kerak bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda taraqqiylashgan sivilizatsion davrda ekstremal vaziyatga tez-tez duch kelishimiz mumkin.. Agarda biz ekstremal vaziyatlarda shaxsni psixologik o'rganish bilan bog'lasak bunda psixologiyaning tarmoqlari yanada kengayishiga sabab bo'ladi. Buning uchun ekstremal vaziyatda shaxsni tang holatdan olib chiqish mexanizmlarini ishlab chiqish, uning metodlarini hayotga tadbiq etish ahamiyatga molikdir.

Adabiyotlar

1. Davletshin M.G. "Psixologiya texnicheskix sposobnostey" — Toshkent, 1975. — 98s.
2. Drujinin V.M. "Eksperimentalnaya psixologiya". Piter. 2001y.
3. Barotov Sh.R. "Mehnat jarayoni va ijtimoiy ruhiy jihatlar" // Iqtisod va hisobot. — Toshkent, 1997. № 9. — B. 60-62

QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH TAHLILIDA DINAMIKA KO'RSATKICHLARIDAN FOYDALANISH

F. Mehmonqulova BuxDU talabasi,
Ilmiy rahbar: X.I. Mo'minov

Dinamika so'zi grekcha "dynamikos" so'zidan olingan bo'lib, kuchli degan lug'aviy mazmunga ega. Bu atama harakat holatini, o'sish yoki rivojlanishni anglatadi.

Hodisalarning vaqt ichida o'zgarishi statistikada dinamika deb, shu jarayonni ta'riflovchi ko'rsatkichlar qatori esa dinamika qatorlari deb yuritiladi.

Dinamika qatorlarini tahlil qilish jarayonida quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

- 1) mutlaq qo'shimcha o'sish (yoki kamayish);
- 2) o'sish (yoki kamayish) koeffitsiyenti yoki sur'ati;
- 3) qo'shimcha o'sish (yoki kamayish) koeffitsiyenti yoki sur'ati (foizda);
- 4) 1% qo'shimcha o'sishning (yoki kamayishning) mutlaq qiymati;
- 5) jadallashtirish ko'rsatkichlari.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish holatini dinamika ko'rsatkichlari orqali tahlil qilamiz.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'z iqtisodiyotini erkin boshqariladigan, ijtimoiy himoyalangan erkin bozor iqtisodi qonun va tamoyillari asosida shakllantirish hamda rivojlantirish yo'lini tanladi. Mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarida jumladan qishloq xo'jaligida ham erkin bozor munosabatlari barcha qonunlar kategoriyalar talablari asosida barpo etilib rivojlantirildi. Istiqlol yillarida qishloq xo'jaligi sohasida mutlaqo yangi iqtisodiy munosabatlar joriy etilib, fermerlik harakati uchun katta imkoniyatlar

МУНДАРИЖА

	Сўз боши	3
Акратова Г.М., Арслонот Қ.П.	15-16 ёшдаги мактаб ўқувчилари ўртасида енгил атлетика спорт турига қизиқишни ошириш тамойиллари	5
Akramov I.I., Rasulov Z.	Dunyoning lisoniy manzarisini tasvirlashda iboralarning o'rni	8
Abdullayev H.H., SHomurodov T.R.	Chorvachilik va parandachilikga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida biogaz ishlab chiqarish istiqbollari	12
Arabov U.H.	Qaror va farmoyishlar bazasini shakllantirishda axborot texnologiyalarining o'rni, f9 dasturi.	14
Axmedov A., G'afurov K.H.	Texnologik jarayonlarni akt asosida boshqarishda dasturlar ishlab chiqish texnologiyasi	18
Bafayeva Z.KH., Artikova KH.T.	Physical and chemical properties of historically irrigated pasturable alluvial soils of the Bukhara oasis	23
Бафаева З.Х., Артикова Х.Т.	Экологическое состояние орошаемых почв Бухарского оазиса	26
Восиева Ш., Гадоева М.И.	Инглиз тилида отларнинг аффиксация усули билан ясалиши	31
Вохидова З.Н., Асадова С.С., Файзиллоева Н.Б., Рахмонов И.М.	Замонавий тикув машиналарида динамик зўриқишнинг салбий оқибатлари ва уларни бартараф этиш йўллари	35
G'afurov M.O. Ergashev S.	Tezligi rostlanadigan elektr yuritmalaridagi dinamik jarayonlarning "matlab" dasturidagi tahlili	38
Djafarova N.A.	Turizmdagi statistik hisob usullari dunyo mamlakatlari misolida	42
Джураева З.И., Бакаева М.К.	Проблема положительного героя в рассказах редьярда киплинга о маугли	47
Djurayeva M.Z.	Jismoniy madaniyat ta'limining testlash va	52

Kadirov R.X.	baholash amallari to'g'risida	
Jamolova Z.N.	Asqar Mahkam she'rlarida tasavvufiy tuyg'ular talqini	57
Jumayeva Z.Q.	Davlat xaridlarini tashkil etishning nazariy asoslari	60
Жумаева З.Қ.	Миллий иқтисодиёт самарадорлигини аниқлашда ялпи ички маҳсулотнинг ўрни	63
Zaripov K.Y.	The effect of economy concept into	
Rasulov Z.I.	linguistic changes of morphologic units	66
Исломов Б.Б., Мирзоев Н.Н.	Бўстон 110/35/10 қвли подстанциясини модернизация қилиш даврида рақамли ва микропроцессорли реле ҳимоя қурилмаларини қўллаш орқали ҳимоя тизимини ишончлилигини ошириш	69
Исматов С.Р.	Бошланғич синф ўқувчиларида ижодий қобилиятларни тарбиялаш	72
Karimov R.S., Jalolov O.I.	Moodle tizimida statistik hisobotlarni boshqarish	78
Kurbanova M.X.	Turistik masumiylik muammosini bartaraf etishning jahon amaliyotidagi chora-tadbirlari	83
Mansurova M.A.	Ekstremal vaziyatlarda shaxs psixikasida yūzaga keladigan holatlar tasnifi	87
Mehmonqulova F., Mo'minov X.I.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishning tahlilida dinamika ko'rsatkichlaridan foydalanish	90
Муродов Б.К.	Процесс производства нефтяного твердого парафина	94
Мухаммеджанова С., Курбонов Ф.А.	Тикув машиналари механизмларининг конструкциялари ва ишчи органларига қўйиладиган қатъий талаблар	97
Мўминов Х.И.	Юқори маълумотлилар кўчиши: назария ва амалиёт	101
Naimova A.M.	Epistolyar janr genezisi	106
Нарзуллаева М.	Жондор тумани микротопонимиясига доир мулоҳазалар	109